

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

No'monov Javoxir Olimjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: numanovjavokhir8@gmail.com

Annotatsiya. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini samarali tashkil etish ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, logistika xarajatlarini maqbullashtirish va iste'molchilar talabini o'z vaqtida qondirishning muhim shartlaridan biridir. Maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishning mazmuni, asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Ta'minot zanjirining xomashyo etkazib berish, xaridlarni rejalashtirish, etkazib beruvchilar bilan hamkorlik, zaxiralarni boshqarish, ishlab chiqarish va ta'minotni muvofiqlashtirish, logistika jarayonlarini tashkil etish, axborot oqimlarini boshqarish hamda tayyor mahsulotni taqsimlash kabi tarkibiy yo'nalishlari yoritilgan. Oziq-ovqat mahsulotlarining tez buziluvchanligi, xomashyo ta'minotining mavsumiyligi, sifat va oziq-ovqat xavfsizligi talablari, bozor talabining o'zgaruvchanligi ta'minot zanjirini boshqarishga qo'yiladigan talablarni kuchaytirishi asoslangan. Ta'minot zanjiri samaradorligini baholashda xarajatlar, etkazib berish muddati, zaxiralar aylanishi, resurslardan foydalanish darajasi, mahsulot yo'qotishlari va logistika samaradorligi kabi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali xarid, ishlab chiqarish, zaxiralarni boshqarish va mahsulot harakatini monitoring qilish jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatlari asoslangan. Natijada oziq-ovqat sanoatida ta'minot zanjirini boshqarish korxonaning ishlab chiqarish, logistika va bozor faoliyatini yagona tizim asosida muvofiqlashtiruvchi kompleks mexanizm sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: Ta'minot zanjiri, oziq-ovqat sanoati, logistika, xomashyo ta'minoti, zaxiralarni boshqarish, etkazib beruvchilar, xarid jarayonlari, raqamli texnologiyalar, moddiy oqimlar, iqtisodiy samaradorlik

KIRISH

Oziq-ovqat sanoati aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, sanoat ishlab chiqarishining uzluksizligini ta'minlash va ichki bozor talabini qondirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tarmoqning rivojlanishi qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, saqlash, tashish va iste'molchiga etkazib berish jarayonlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning doimiyligi, ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi va iste'mol bozorlarining tarkibiy o'zgarishi korxonalar faoliyatida moddiy, moliyaviy, axborot va mehnat reusrlarini samarali boshqarish masalasini yanada dolzarb qilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlarining globallasuvi korxonalar o'rtasidagi xo'alik aloqalarning kengayishiga, xomashyo va materiallar

harakatining murakkablashuviga hamda mahsulotlarni yakuniy iste'molchiga etkazib berish jarayonlariga qo'yiladigan talablarning ortishiga olib kelmoqda. Raqobat muhitining kuchayishi sharoitida korxonalarining bozordagi mavqeini faqat ishlab chiqarish quvvatlari yoki mahsulot hajmi bilan emas, xomashyo xariddidan boshlab tayyor mahsulotni iste'molchiga etkazishgacha bo'lgan jarayonlarning samarali tashkil etilishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli ta'minot zanjirini boshqarish ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, xarajatlarni maqbullashtirish, resurslardan foydalanish darajasini yaxshilash va bozor talablariga tezkor moslashish zarurati paydo bo'lib bormoqda.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmining barqarorligini ta'minlash korxonaning ichki boshqaruv imkoniyatlari bilan bir qatorda etkazib beruvchilar, logistika tashkilotlari, distribyutorlar va savdo subyektlari bilan shakllangan iqtisodiy munosabatlarning samaradorligiga ham bog'liq. Ta'minot jarayonlaridagi muvofiqlashtirishning etarli darajada emasligi ishlab chiqarish xarajatlarning oshishi, resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishi, mahsulot etkazib berish muddatlarining buzilishi va bozor talabining to'liq qondirilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Korxonalar faoliyatida ta'minot zanjirini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlash va resurslar harakatini muvofiqlashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Martin Christopher ta'minot zanjirini etkazib beruvchilardan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan o'zaro bog'liq jarayonlar tizimi sifatida talqin qilib, asosiy e'tiborni zanjir ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiya va iste'molchi uchun yaratiladigan qiymatni oshirishga qaratadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida fermer xo'jaliklari va xomashyo etkazib beruvchilardan boshlab qayta ishlash korxonalari, logistika operatorlari, distribyutorlar va chakana savdo tarmoqlarigacha bo'lgan bo'g'inlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlashni anglatadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari ta'minot zanjirining dastlabki bosqichlaridan shakllanishi sababli etkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli va ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'yishni nazarda tutadi⁴⁶.

Sunil Chopra va Peter Meindl ta'minot zanjirini strategik, taktik va operatsion qarorlarning o'zaro bog'langan tizimi sifatida ko'rib, uning samaradorligini ta'minlashda ishlab chiqarish, zaxiralar, transport, axborot va xarid bo'yicha qarorlarning muvofiqligini asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida esa ta'minot zanjirini boshqarishda xomashyo xarid qilish hajmini ishlab chiqarish ehtiyoji va iste'mol talabining prognozi bilan bog'lash, saqlash muddati cheklangan mahsulotlar bo'yicha zaxiralarni optimal darajada shakllantirish hamda transport yo'nalishlarini mahsulotning fizik-kimyoviy xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishiga urg'u berilgan⁴⁷.

Donald J.Bowersox, David J.Closs va M.Bixby Cooper ta'minot zanjiri

⁴⁶Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. 6th ed. Pearson, 2023.

⁴⁷Chopra S, Meindl P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. 7th ed. Pearson, 2019.

boshqaruvida logistika jarayonlarini integratsiyalash, moddiy va axborot oqimlarini muvofiqlashtirish hamda zanjir ishtirokchilari o'rtasida hamkorlikni shakllantirish masalasiga e'tibor bergan. Oziq-ovqat sanoatida xomashyoni ishlab chiqarish korxonasiga etkazish, uni qabul qilish va sqlash, qayta ishlash, tayyor mahsulotni qadoqlash, omborlashtirish va savdo nuqtalariga etkazib berish jarayonlariga yagona oqim bo'lib boshqarishni talab qiladi. Ayniqsa, sovutilgan yoki maxsus saqlash sharoitlarini talab qiladigan mahsulotlarda transport va ombor jarayonlarining muvofiqlashtirilmaganligi mahsulot sifatining pasayishiga va iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'ladi degan g'oyani ilgari surishgan⁴⁸.

V.I.Segeev oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishni rejalashtirish, modellashtirish, zaxiralarni boshqarish, risklarni baholash va zanjir ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiya bilan bog'laydi. Oziq-ovqat ishlab chiqarishda xomashyo ta'minotining mavsumiyligi va sifatining o'zgaruvchanligi sababli etkazib beruvchilarni diversifikatsiya qilish, optimal zaxiralarni shakllantirish va ta'minotdagi risklarni boshqarish muhim hisoblanadi. Zaxiralarning ortiqcha shakllanishi mahsulotlarning yaroqlilik muddati bilan bog'liq yo'qotishlarni oshirish, etishmovchiligi esa ishlab chiqarish uzilishlariga olib keladi⁴⁹.

V.V. Dyibskaya oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjiri samaradorligini ombor, transport, ta'minot va taqsimot jarayonlarining o'zaro muvofiqligi bilan bog'laydi. Oziq-ovqat mahsulotlarining saqlash sharoitlari, harorat rejimi va yaroqlilik muddati ombor hamda transport jarayonlarini aniq tashkil etishni talab qiladi. Xomashyoni qabul qilishdan tayyor mahsulotni iste'molchiga etkazishgacha bo'lgan jarayonlarning muvofiqlashtirilishi mahsulot sifatini saqlash, yo'qotishlarni kamaytirish va logistika xarajatlarini maqbullashtiradi⁵⁰.

A.M.Gadzhinskiy oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini moddiy oqimlarni boshqarish, zaxiralarni optimallashtirish, ta'minot va taqsimot jarayonlarini muvofiqlashtirish bilan bog'laydi. Xomashyo va materiallar harakatining ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirilishi ishlab chiqarishdagi uzilishlarning oldini oladi. Transport va saqlash jarayonlarini optimallashtirish esa mahsulot tannarxini kamaytirish hamda tayyor mahsulotlarning iste'molchiga etib borish muddatini qisqartiradi⁵¹.

M.M.Turg'unov oziq-ovqat sanoati korxonalarida zamonaviy boshqaruvni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qaratadi. Ta'minot zanjirida raqamli texnologiyalardan foydalanish xomashyo buyurtmalarini shakllantirish, zaxiralarni nazorat qilish, etkazib beruvchilar faoliyatini kuzatish va tayyor mahsulotlar harakatini monitoring jarayonini kuchaytiradi. Raqamli boshqaruv vositalari ta'minot jarayonlarining texkorligi va shaffofligini oshiradi (1.2-rasm)⁵².


⁴⁸Bowersox D.J., Closs D.J., Cooper M.B., Bowersox J.C. Supply Chain Logistics Management. 5th ed. McGraw-Hill Education, 2020.

⁴⁹Сергеев В.И. Корпоративная логистика: 300 ответов на вопросы профессионалов. Москва: ИНФРА-М.

⁵⁰Дыбская В.В. Логистика складирования: учебник. Москва: ИНФРА-М.

⁵¹Гаджинский А.М. Логистика: учебник. Москва: Дашков и К.

⁵²Turg'unov M.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv istiqbollari. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 2023, 9(9), 41–45-b.



1.2-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishning asosiy yo'nalishlari⁵³

J.Mirkasimov oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini moddiy oqimlarning uzluksiz harakatini tashkil etish, transport va ombor jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda logistika xarajatlarini muqobillashtirish bilan bog'laydi. Tez buziladigan mahsulotlarida etkazib berish tezligi va saqlash sharoitlariga rioya qilish mahsulot sifatini belgilaydi. Transport yo'nalishlarini optimallashtirish va ombor jarayonlarini ishlab chiqarish jadvali bilan uyg'unlashtirish ta'minot zanjirini samaradorligini oshiradi⁵⁴.

S.B.Maxmudov oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarning o'zaro muvofiqligi asosida boshqarish zarurligini asoslaydi. Xomashyo xaridi, etkazib beruvchilar bilan hisob kitoblar, transport xarajatlari va tayyor mahsulot realizatsiyasidan tushadigan mablag'larning uyg'un boshqarilishi aylanma mablag'lardan samarali foydalaniladi. Moliyaviy oqimlarni ta'minot jarayonlari bilan integratsiyalash oziq-ovqat korxonalarining moliyaviy barqarorligini kuchaytiradi⁵⁵.

⁵³Muallif ishlanmasi

⁵⁴Mirkasimov J. Logistikaning nazariy asoslari va uning jahon iqtisodiyotidagi o'rni. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024, 2(5), 185–191-b.

⁵⁵Maxmudov S.B. Logistika va ta'minot zanjiri jarayonlarini integratsiyalash uchun moliyaviy boshqaruv strategiyalari. Insurance Market of Uzbekistan, 2024, 1(12), 31–34-b.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishning iqtisodiy va tashkiliy xususiyatlarini kompleks o'rganishga asoslangan. Tadqiqotda ta'minot zanjiri etkazib beruvchilardan xomashyo xarid qilishdan boshlab, ishlab chiqarish, saqlash, tashish, taqsimlash va tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga etkazib berishgacha bo'lgan o'zaro bog'liq jarayonlar majmui sifatida qaraladi

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish va logistika jarayonlarining jadal kirib kelishi ta'minot zanjirini boshqarish jarayonlarini kengaytirmoqda. Korxonalarda raqamli axborot tizimlaridan foydalanish talabni prognozlash, xaridlarni rejalashtirish, zaxiralarni boshqarish, etkazib berish jarayonlarini nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini tezkorligini oshiradi. Ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirish korxonalarining resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ta'minot zanjirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlar va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytiradi.

Ta'minot zanjirining samaradorligini baholashda xarid qiymati, transport va saqlash xarajatlari, zaxiralarning aylanish tezligi, etkazib berish muddati, resurslardan foydalanish darajasi hamda tayyor mahsulotning bozorga chiqarilish ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini shakllantirish korxona xarajatlarini maqbullashtirish va iqtisodiy natijadorlikni oshirish imkonini beradi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishning asosiy yo'nalishlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishning asosiy yo'nalishlari⁵⁶

№	Yo'nalish	Mazmuni	Boshqaruv obyekti	Kutiladigan iqtisodiy samara
1	Xomashyo bilan ta'minlash	Ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo hajmini aniqlash va xarid jarayonlarini tashkil etish	Xomashyo va materiallar	Ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash
2	Yetkazib beruvchilarni boshqarish	Yetkazib beruvchilarni tanlash, baholash va ular bilan hamkorlikni tashkil etish	Yetkazib beruvchi korxonalar	Ta'minot ishonchliligini oshirish
3	Xarid jarayonlarini rejalashtirish	Xarid hajmi, muddati va moliyaviy resurslarini belgilash	Xarid operatsiyalari	Xarid xarajatlarini kamaytirish
4	Moddiy resurslar oqimini boshqarish	Xomashyo va materiallarning korxona ichidagi harakatini muvofiqlashtirish	Moddiy oqimlar	Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish
5	Ishlab chiqarish va ta'minotni muvofiqlashtirish	Ta'minot hajmini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish	Ishlab chiqarish va ta'minot	Ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirish

⁵⁶Muallif ishlanmasi

			jarayonlari	
6	Zaxiralarni boshqarish	Zarur miqdordagi xomashyo va tayyor mahsulot zaxiralarini shakllantirish	Ombor zaxiralari	Zaxiralarni saqlash xarajatlarini maqbullashtirish
7	Logistika jarayonlarini boshqarish	Yuklarni tashish, marshrutlarni rejalashtirish va etkazib berishni tashkil etish	Transport-logistika operatsiyalari	Transport xarajatlarini kamaytirish
8	Axborot oqimlarini boshqarish	Buyurtma, xarid, zaxira va etkazib berish haqidagi ma'lumotlarni muvofiqlashtirish	Axborot oqimlari	Boshqaruv qarorlarining tezkorligini oshirish
9	Tayyor mahsulotni taqsimlash	Ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimot kanallari orqali bozorga etkazish	Tayyor mahsulot oqimi	Mahsulot realizatsiyasini barqarorlashtirish
10	Ta'minot zanjiri samaradorligini baholash	Ta'minot zanjirining xarajat, vaqt va natijadorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish	Ta'minot zanjirining umumiy faoliyati	Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarish xomashyo etkazib beruvchilardan boshlab tayyor mahsulotning yakuniy iste'molchiga etib borishigacha bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni yagona tizim asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Ta'minot zanjirining tarkibida xomashyo va materiallarni xarid qilish, ularni korxonaga etkazib berish, ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirish, qayta ishlash, tayyor mahsulotni shakllantirish, saqlash, tashish va taqsimlash jarayonlari o'zaro bog'langan holda amalga oshiriladi. Ilmiy adabiyotlarning keng ko'lamli bibliometrik va mazmuniy tahlili oziq-ovqat ta'minot zanjirini boshqarish masalalari logistika, xarid, ishlab chiqarish, taqsimot, hamkorlik, axborot almashinuvi va barqaror rivojlanish yo'nalishlari bilan chambarchas bog'langanini ko'rsatadi. Keng miqyosdagi ilmiy manbalarni tizimlashtirish natijalari oziq-ovqat ta'minot zanjiri alohida korxona faoliyati bilan chegaralanmasligini, balki zanjirda ishtirok etuvchi xo'jalik subyektlarining faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishni talab etadigan murakkab iqtisodiy tizim ekanini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat sanoatida ta'minot zanjirining o'ziga xosligi uning ko'p bosqichli va o'zaro bog'langan tuzilmasida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligi xomashyosini etkazib beruvchilardan xarid qilish, xomashyoni qayta ishlash korxonasiga olib kelish, ishlab chiqarish jarayonida undan foydalanish, tayyor mahsulotni omborlarga joylashtirish, transport vositalari orqali distribyutorlar va savdo tarmoqlariga etkazish hamda iste'molchiga realizatsiya qilish yagona moddiy oqimni shakllantiradi. Zanjirning bir bo'g'inida yuzaga kelgan kechikish keyingi jarayonlarning bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, xomashyoning o'z vaqtida etkazilmasligi ishlab chiqarish rejasining bajarilishini cheklaydi, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi esa distribyutorlar va chakana savdo subyektlariga etkazib beriladigan mahsulot miqdorining kamayishiga olib keladi. Korxona faoliyatini boshqarishda zanjirning barcha bo'g'inlari o'rtasidagi iqtisodiy va tashkiliy aloqalarni birgalikda ko'rib chiqish

talab qilinadi"⁵⁷.

Xomashyo bilan ta'minlash oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan yo'nalishlardan biridir. Xomashyoning miqdori, sifati, narxi va etkazib berish muddati ishlab chiqarish rejasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan foydalanadigan korxonalarda xomashyo oqimining shakllanishi etkazib beruvchilar faoliyati, ishlab chiqarish hajmi va bozor sharoitlari bilan bog'liq holda o'zgaradi. Xarid hajmining ishlab chiqarish ehtiyojidan yuqori bo'lishi ortiqcha zaxiralarni yuzaga keltirishi, saqlash va moliyalashtirish xarajatlarini oshirishi mumkin. Xarid hajmining etarli emasligi esa ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini pasaytiradi. Korxonada xomashyo ehtiyojini oldindan aniqlash, xarid muddatlarini belgilash, etkazib beruvchilarni baholash va zaxiralarni ishlab chiqarish rejasiga mos ravishda shakllantirish ta'minot zanjirining uzluksiz ishlashiga xizmat qiladi⁵⁸.

MUHOKAMA

Ta'minot zanjirining o'ziga xos jihatlaridan biri etkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli va muvofiqlashtirilgan iqtisodiy aloqalarni shakllantirish zaruratidir. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati ko'pincha bir nechta etkazib beruvchilarning imkoniyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Yetkazib beruvchining moliyaviy holati, ishlab chiqarish quvvati, mahsulot sifati, shartnoma majburiyatlarini bajarish darajasi va logistika imkoniyatlari ta'minotning barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Yetkazib beruvchilarni faqat narx mezonida asosida tanlash o'rniga mahsulot sifati, etkazib berish ishonchligi, muddatlarga rioya qilish va hamkorlik imkoniyatlarini kompleks baholash korxona uchun yanada samarali natija beradi. Bir nechta ta'minot manbalaridan foydalanish esa bitta etkazib beruvchiga bog'liqlikni kamaytirib, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini saqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bozor talabining o'zgarib borishi oziq-ovqat sanoati korxonalarida xarid, ishlab chiqarish, zaxiralarni shakllantirish va tayyor mahsulotni taqsimlash jarayonlarini o'zaro bog'liq holda rejalashtirishni talab qiladi. Iste'molchilar ehtiyojining tarkibi, mahsulot assortimenti, buyurtmalar hajmi va bozor konyukturasidagi o'zgarishlar ishlab chiqarish rejalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Talab hajmini aniq baholanmaslik ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilishi, tayyor mahsulot zaxiralarining ko'payishi va saqlash xarajatlarining ortishiga olib keladi. Aksincha, bozor talabiga nisbaan past hajmda ishlab chiqarish ayrim mahsulot turlarining etishmovchiligini keltirib chiqaradi. Korxonalardagi talab ma'lumotlarni muntazam yig'ish va tahlil qilish, ishlab chiqarish hamda xarid rejalarini bilan bog'lash ta'minot zanjirining bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Oziq-ovqat ta'minot zanjirini boshqarishda logistika, ishlab chiqarish, xarid, sifat nazorati, risklarni boshqarish, raqamlashtirish va barqaror rivojlanish jarayonlari o'zaro bog'langan holda tashkil etiladi. Har bir bo'g'inda shakllanadigan xarajatlar,

⁵⁷Luo J, Ji C, Qiu C, & Jia F. (2018). Agri-food supply chain management: Bibliometric and content analyses. *Sustainability*, 10(5), 1573. <https://doi.org/10.3390/su10051573>

⁵⁸Handayati Y, Simatupang T. M, & Perdana T. (2015). Agri-food supply chain coordination: The state-of-the-art and recent developments. *Logistics Research*, 8, 5. <https://doi.org/10.1007/s12159-015-0125-4>

vaqt sarfi, resurslar harakati va axborot oqimlari zanjirining umumiy natijadorligiga ta'sir ko'rsatadi. Xomashyo etkazib berishdan tayyor mahsulotni iste'molchiga etkazishgacha bo'lgan jarayonlarning muvofiqlashtirilishi korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, mahsulot tannarxi, zaxiralar hajmi va realizatsiya samaradorligini belgilaydi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishning asosiy xususiyatlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishning asosiy xususiyatlari⁵⁹

№	Asosiy xususiyat	Mazmuni	Korxona faoliyatiga ta'siri
1	Xomashyo ta'minotining uzluksizligi	Ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo va materiallarning belgilangan hajmda hamda o'z vaqtida etkazib berilishini tashkil etish	Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi
2	Ko'p bo'g'inli ta'minot tizimi	Yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi, distribyutor, savdo subyekti va iste'molchi o'rtasidagi jarayonlarni o'zaro bog'lash	Zanjirning umumiy muvofiqligini ta'minlaydi
3	Tezkor moddiy oqimlar	Xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarning zanjir bo'ylab harakatini muvofiqlashtirish	Ishlab chiqarish va etkazib berish muddatlarini qisqartiradi
4	Zaxiralarni maqbullashtirish	Xomashyo va tayyor mahsulot zaxiralarini ishlab chiqarish hamda bozor talabiga mos ravishda shakllantirish	Saqlash va ortiqcha zaxira xarajatlarini kamaytiradi
5	Talabga moslashuvchanlik	Iste'mol bozori talabi, buyurtmalar hajmi va assortimentdagi o'zgarishlarni hisobga olish	Mahsulot etishmovchiligi va ortiqcha ishlab chiqarishni kamaytiradi
6	Yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik	Yetkazib beruvchilarni tanlash, baholash va uzoq muddatli iqtisodiy aloqalarni shakllantirish	Ta'minot ishonchliligi va xomashyo sifati oshadi
7	Axborot almashinuvi	Buyurtmalar, zaxiralar, xaridlar, ishlab chiqarish va mahsulot harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni almashish	Boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini oshiradi
8	Sifat va oziq-ovqat xavfsizligi	Xomashyoni qabul qilishdan tayyor mahsulot realizatsiyasigacha sifat va xavfsizlik talablarini nazorat qilish	Mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi
9	Logistika xarajatlarini boshqarish	Xarid, transport, ombor, saqlash va taqsimot xarajatlarini o'zaro bog'liq holda nazorat qilish	Mahsulot tannarxi va umumiy xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi
10	Risklarni boshqarish	Yetkazib berishdagi uzilishlar, narx o'zgarishi, talab noaniqligi va transport xavflarini baholash	Ta'minot zanjirining barqarorligini oshiradi
11	Raqamli	Elektron buyurtmalar, raqamli monitoring,	Jarayonlarning

⁵⁹Muallif ishlanmasi

	boshqaruv	zaxiralarni avtomatik nazorat qilish va mahsulot harakatini kuzatish	shaffofligi va boshqaruv tezkorligini oshiradi
12	Barqarorlik	Resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot yo'qotishlarini kamaytirish va ekologik xarajatlarni nazorat qilish	Uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik samaradorlikni yaxshilaydi
13	Zanjirlararo muvofiqlashtirish	Xarid, ishlab chiqarish, ombor, transport va sotish jarayonlarini yagona reja asosida boshqarish	Korxonaning umumiy natijadorligini oshiradi
14	Iste'molchiga yo'naltirilganlik	Mahsulot hajmi, sifati, assortimenti va etkazib berish xizmatini iste'molchi ehtiyojlariga moslashtirish	Bozor raqobatbardoshligi va mijozlar qoniqligini oshiradi

Ta'minot zanjirining ko'p bo'g'inli tuzilishi etkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar, savdo subyektlari va iste'molchilar o'rtasidagi aloqalarning uzluksiz tashkil etilishini talab qiladi. Xomashyo etkazib berishdagi kechikish ishlab chiqarish jarayoniga, ishlab chiqarishdagi o'zgarish tayyor mahsulot taqsimotiga, taqsimotdagi uzilish esa iste'mol bozoridagi mahsulot mavjudligiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir bo'g'inning faoliyati keying bosqichlar bilan bevosita bog'langanligi sababli korxona faoliyatini boshqarishda ta'minot zanjirining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar hisobga olinadi. Bunday boshqaruv yondashuvi xarid, ishlab chiqarish, logistika va sotish jarayonlari o'rtasidagi muvofiqlikni kuchaytiradi.

Xomashyo ta'minotining uzluksizligi oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Xomashyo va materiallarning belgilangan muddatda, zarur hajmda hamda ishlab chiqarish talablariga mos sifatda etkazib berilishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini belgilaydi. Ta'minotdagi uzilishlar ishlab chiqarish rejasining bajarilmasligi, uskunalarining bekor turishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Korxonada xomashyo ehtiyojini oldindan hisoblash, xarid muddatlarini belgilash, etkazib berish jarayonlarini nazorat qilish va muqobil ta'minot manbalarini shakllantirish ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Moddiy oqimlarning tezkorligi xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarning ta'minot zanjiri bo'ylab harakatlanishi davomiyligi bilan belgilanadi. Xomashyoning korxonaga kelib tushishi, ishlab chiqarishga yo'naltirilishi, tayyor mahsulotning omborga joylashtirilishi va savdo kanallariga etkazilishi logistika jarayonlarining umumiy davomiyligiga ta'sir qiladi. Transport marshrutlarini oqilona tashkil etish, ortiqcha qayta yuklash operatsiyalarini qisqartirish, ombor jarayonlarini takomillashtirish va mahsulot harakatini muvofiqlashtirish moddiy oqimlarining tezkorligini oshiradi. Yetkazib berish muddatlarining qisqarishi ishlab chiqarish siklining samaradorligini oshirish va buyurtmalarni o'z vaqtida bajarishi bilan bog'liq iqtisodiy natijalarni yaxshilaydi.

Zaxiralarni boshqarish jarayonida xomashyo va tayyor mahsulot miqdori ishlab chiqarish ehtiyojlari hamda bozor talabi bilan uyg'unlashtiriladi. Ortiqcha

zaxiralarning shakllanishi ombor maydonlariga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Saqlash xarajatlarini ko'paytiradi va oziq-ovqat mahsulotlarida yaroqlilik muddatining qisqarishi bilan bog'liq yo'qotishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Zaxiralarning etarli emasligi ishlab chiqarishdagi uzilishlar va buyurtmalarni bajarishda kechikishlarni keltirib chiqaradi. Minimal va maksimal zaxira me'yorlarini belgilash, zaxiralarning aylanish tezligini nazorat qilish hamda xaridalarini ishlab chiqarish rejasiga moslashtirish korxona resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Mahsulot sifati va oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarishning o'ziga xos mazmunini shakllantiruvchi yo'nalishlaridan biridir. Oziq-ovqat korxonalarida ta'minot zanjiri xomashyoni qabul qilishdan boshlanib, uni saqlash, ishlab chiqarishga uzatish, qayta ishlash, qadoqlash, transportovka qilish va tayyor mahsulotni iste'molchiga etkazishgacha davom etadi. Har bir bosqichda xomashyo va mahsulot sifatining nazorat qilinishi ta'minot zanjirini boshqaruv jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Harorat va namlik rejimlarining buzilishi, sanitariya talablariga rioya qilinmasligi, saqlash muddatlarining oshib ketishi yoki transport sharoitlarining talabga javob bermasligi oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat korxonasining ta'minot zanjirini boshqarishda sifat nazoratini xomashyo ta'minotidan tayyor mahsulot realizatsiyasigacha davom ettirish iste'molchiga xavfsiz va sifatli mahsulot etkazib berish talablarini ta'minlaydi.

XULOSA

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarish ishlab chiqarishning xomashyo va materiallar bilan uzluksiz ta'minlanishi, ularning ishlab chiqarish jarayoniga o'z vaqtida etkazilishi hamda tayyor mahsulotning bozorga chiqarilishi bilan bog'liq jarayonlarning o'zaro uyg'unligini talab qiladi. Ta'minot zanjirining ko'p bo'g'inli tuzilishi korxona, etkazib beruvchilar, logistika subyektlari, distribyutorlar va savdo tashkilotlari o'rtasiga iqtisodiy munosabatlarni yagona boshqaruv tizimida tashkil etishni taqozo etadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining tez buziluvchanligi, saqlash muddati, sifat va xavfsizlik talablari, xomashyo ta'minotining mavsumiyligi hamda bozor talabining o'zgaruvchanligi ta'minot zanjirini boshqarishda tezkor va moslashuvchan qarorlar qabul qilishga asos yaratadi.

Ta'minot zanjirini boshqarishning o'ziga xosligi moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarning yagona tizimda muvofiqlashtirilishi, xarajatlarning kompleks nazorat qilinishi, risklarning boshqarilishi va iste'molchi talablariga moslashish bilan ham belgilanadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta'minot zanjirining samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmi orqali emas, balki resurslardan foydalanish darajasi, mahsulot yo'qotishlari, etkazib berish tezligi, zaxiralar aylanishi, logistika xarajatlari va tayyor mahsulotning iste'molchiga etib borish sifati orqali ham baholanadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'minot zanjiridagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, xomashyo va tayyor mahsulot harakatini kuzatish, zaxiralar holatini nazorat qilish hamda xarid, ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlari o'rtasidagi axborot almashinuvini jadallashtirishni kuchaytiradi. Elektron buyurtma tizimlari, raqamli ombor boshqaruvi va mahsulot harakatini monitoring qilish vositalaridan

foydalanish boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligini oshiradi. Natijada oziq-ovqat korxonalarida ta'minot zanjirini boshqarish ishlab chiqarish, logistika va bozor jarayonlarini birlashtiruvchi, resurslar harakatini muvofiqlashtiruvchi, xarajatlarni nazorat qiluvchi hamda korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi kompleks boshqaruv tizimi sifatida shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bowersox, D. J., Closs, D. J., Cooper, M. B., & Bowersox, J. C. (2020). Supply chain logistics management (5th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Chopra, S., & Meindl, P. (2019). Supply chain management: Strategy, planning, and operation (7th ed.). Pearson.
3. Christopher, M. (2023). Logistics & supply chain management (6th ed.). Pearson.
4. Дйбская, В. В. (2019). Логистика складования: Учебник ИНФРА-М.
5. Гадзхинский, А. М. (н.д.). Логистика: Учебник Дашков и К.
6. Handayati, Y., Simatupang, T. M., & Perdana, T. (2015). Agri-food supply chain coordination: The state-of-the-art and recent developments. Logistics Research, 8, 5. <https://doi.org/10.1007/s12159-015-0125-4>
7. Luo, J., Ji, C., Qiu, C., & Jia, F. (2018). Agri-food supply chain management: Bibliometric and content analyses. Sustainability, 10(5), 1573. <https://doi.org/10.3390/su10051573>
8. Mirkasimov, J. (2024). Logistikaning nazariy asoslari va uning jahon iqtisodiyotidagi o'rni. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(5), 185–191.
9. Maxmudov, S. B. (2024). Logistika va ta'minot zanjiri jarayonlarini integratsiyalash uchun moliyaviy boshqaruv strategiyalari. Insurance Market of Uzbekistan, 1(12), 31–34.
10. Сергеев, В. И. (н.д.). Корпоративная логистика: 300 ответов на вопросы профессионалов INFRA-М.
11. Turg'unov, M. M. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv istiqbollari. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9(9), 41–45.
12. Akkerman, R., Farahani, P., & Grunow, M. (2010). Quality, safety and sustainability in food distribution: A review of quantitative operations management approaches and challenges. OR Spectrum, 32, 863–904. <https://doi.org/10.1007/s00291-010-0223-7>
13. Kamble, S. S., Gunasekaran, A., & Sharma, R. (2020). Modeling the blockchain enabled traceability in agriculture supply chain. International Journal of Information Management, 52, 101967. <https://doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2019.05.023>
14. Su, I.-H., Wu, L., & Tan, K. H. (2023). The future of the food supply chain: A systematic literature review and research directions towards sustainability, resilience, and technology adoption. Journal of Digital Economy, 2, 303–316. <https://doi.org/10.1016/j.jdec.2024.03.001>